



HEINRICH BÖLLNING“ANSICHTEN EINES CLOWNS” ASARIDA GRAMMATIK VOSITALARNING QO’LLANILISHI

Rahmonqulova Xolida

O‘zMU talabasi

Xasanova M

Ilmiy rahbar: kata o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Heinrich Böllning “Ansichten eines Clowns” (“Bir masxarabozning qarashlari”) asarida grammatik vositalarning qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Asarda qo‘llanilgan sintaktik tuzilmalar, olmoshlar, modal fe‘llar, sifatlar va bog‘lovchilar orqali bosh qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va jamiyatga bo‘lgan munosabati ifoda topgani ko‘rsatiladi. Ayniqsa, “Wenn ich betrunken bin...” jumlasida berilgan grammatik tahlil orqali muallifning psixologik ifodaviylikka erishishdagi uslubi yoritiladi. Maqolada qo‘shma gaplar tuzilishi, fe‘llarning zamon va shaxs shakllari, so‘z tartibi va bog‘lovchilarning ma‘no yukiga e‘tibor qaratilib, ularning badiiy ifoda vositasi sifatidagi funksiyasi ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Böll grammatik vositalardan nafaqat nutq aniqligi, balki qahramonning ruhiy tushkunligini chuqur ifodalashda ham mohirlik bilan foydalangan.

Kalit so‘zlar: Heinrich Böll, Ansichten eines Clowns, grammatik vositalar, sintaksis, olmosh, modal fe‘l, sifat, bog‘lovchi, badiiy tahlil, til vositalari, ruhiy holat, nemis adabiyoti, stilistik tahlil.

Abstract: This article analyzes the use of grammatical devices in Heinrich Böll’s novel *Ansichten eines Clowns* (The Clown), with a focus on how syntax, pronouns, modal



verbs, adjectives, and conjunctions contribute to the narrative style and emotional depth of the main character. Through a detailed grammatical breakdown of selected passages, especially the sentence "Wenn ich betrunken bin...", the study illustrates how language reflects the clown's inner turmoil, shame, and identity conflict. The analysis demonstrates the expressive function of grammatical structures such as conditional clauses, word order, and verb forms, which help convey psychological states and the tone of existential crisis in the novel. Ultimately, the paper highlights Böll's mastery in using grammatical precision to deepen the literary and emotional experience of the reader.

Keywords: Heinrich Böll, The Clown, grammatical devices, syntax, pronoun, modal verb, adjective, conjunction, literary analysis, linguistic tools, psychological state, German literature, stylistic analysis.

H. Böllning "Ansichten eines Clowns" (1963) romanida oila, nikoh, sevgi mavzulari, shuningdek, XX asrning 40–60-yillaridagi nemis haqiqatini anglash bilan bog'liq muammolar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu asar ko'pincha oilaviy yoki ijtimoiy roman sifatida talqin etiladi. Har ikki holatda ham tadqiqotchilarning e'tibori asosan tor mavzular, muammolar va obrazlar doirasida jamlanadi. Biroq asarga yaxlit nazar tashlash imkoniyati, bizningcha, uni nemis tarbiya romanlari an'anasi kontekstida tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuvning eng muhim asoslaridan biri shundaki, Böll uchun eng dolzarb bo'lgan masalalar – oila, nikoh, sevgi, e'tiqod, din, axloq, shaxsiy va ijtimoiy hayot, siyosat, erkinlik, hayot ma'nosi, san'at – asarda tarbiya va shaxs kamoloti mavzulari bilan chambarchas bog'liq holda yoritilgan.

Genrix Böll 1972-yilda adabiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Uning ijodida Fyodor Dostoyevskiy va Charlz Dikkens kabi yozuvchilarning kuchli ta'siri seziladi. Ayniqsa, "kichik inson"ga bo'lgan chuqur qiziqish — Böll ijodini ko'plab boshqa Yevropa yozuvchilaridan ajratib turuvchi muhim jihatdir. Deyarli barcha asarlarida muallif



inson ruhiyati, ichki kechinmalari, qarorlarining ildizi ustida to‘xtalib, ularni chuqur psixologik tahlil asosida yoritadi. Aynan ana shu psixologik tahlil uslubi Böll ijodining markaziy elementlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Har bir qahramonning harakati, holati, ruhiy buzilishi yoki umid bilan bog‘liq kayfiyatlari muallif tomonidan psixologik tahlil vositasida aniqlik bilan ochib beriladi. Bu psixologik tahlil faqat tashqi voqealarni emas, balki inson qalbining nozik jihatlarini anglashga yordam beradi. Böll o‘z asarlarida psixologik tahlilga o‘ta katta e‘tibor qaratadi, chunki u, bu orqali o‘quvchini insoniy tub mohiyat bilan yuzlashtiradi.

Endi esa “Ansichten eines Clowns” romanining o‘ziga murojaat qilamiz. Bu asar juda qayg‘uli, hatto yurakni ezuvchi darajada og‘ir ruhda yozilgan. Asarning deyarli barcha voqealari birgina kecha davomida yuz beradi. Umuman olganda, romandagi butun voqelik ikki kunlik vaqt oralig‘ini qamrab oladi. Asar ichki monolog shaklida tuzilgan bo‘lib, unda bosh qahramon — Gans Shnirning o‘y-xayollari markazda turadi. Kasbi bo‘yicha u masxaraboz, bu esa unga ba‘zida yordam beradi, ba‘zida esa hayotini og‘irlashtiradi. Gans nozik ruhli, teran fikrlovchi inson sifatida tasvirlanadi, u insonlarning harakatlarini tushunishga, ularning ichki olamiga kirib borishga moyil.

Romanning syujeti an‘anaviy bo‘lmagan tarzda qurilgan. Asosiy voqea chizig‘i o‘zining soddaligi bilan ajralib turadi, biroq bu chiziq asarning markaziy ma‘nosini anglatmaydi. Masxaraboz bo‘lgan Gans Shnir ilgari mashhur bo‘lgan, biroq hozirda u og‘ir holatga tushib qolgan: rafiqasi uni tark etgan va u tizzasidan og‘ir jarohat olgan, bu esa uzoq muddat faoliyatdan chetda qolishiga sabab bo‘ladi. Biroq muammo faqat jismoniy holatda emas: Gans omma oldida yiqilgan, bu esa uning ruhiy holatini yanada og‘irlashtiradi. Uning fojiasi, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar orqali yanada chuqurlashadi, bu esa asarda psixologik tahlil elementlari orqali yoritiladi.

Romanning mazmuni, asosan, insoniy yolg‘izlik, jamiyatning ikkilamchi me‘yorlari, diniy va axloqiy hukmlar, shaxsiy erkinlikning chegaralari haqida bo‘lib,



muallif bu masalalarni yana va yana psixologik tahlil orqali ochib beradi. Shu bilan birga, Gans Shnir obrazi orqali Böll insoniy erkinlik, axloqiy tanlov va jamiyat bilan murosa qilish kabi murakkab masalalarni chuqur psixologik tahlilga tortadi.¹

Voqealar Bonnda sodir bo‘ladi, vaqt esa taxminan roman yaratilgan davrga to‘g‘ri keladi. Asarning o‘zi Gans Shnir — komik aktyor, ya’ni oddiy qilib aytganda, masxaraboz — tomonidan aytilayotgan uzluksiz monolog shaklida bayon etiladi.

Gans yigirma yetti yoshda va yaqinda hayotidagi eng og‘ir zarbani boshdan kechirgan: uning birinchi va yagona sevgisi — Mari uni tark etib, «katolik» Tsyupfnerga turmushga chiqqan. Mari ketganidan so‘ng, Gans ruhiy tushkunlikka tushadi, ichishga beriladi va bu holat uning ishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi — u sahnada beparvo harakat qila boshlaydi, bu esa daromadining keskin kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, kecha Bo‘xumda, Charli Chaplin obrazida sahnaga chiqib turganida sirg‘anib yiqilib, tizzasini jiddiy jarohatlab olgan. O‘sha chiqish uchun olgan pulining o‘zi zo‘rg‘a uyiga qaytishiga yetgan xolos.

“...Insonlarni hech nima bu qadar tushkunlikka solmaydi, qandayki rahm-shafqat uyg‘otuvchi masxaraboz. Bu xuddi nogironlar aravachasidagi ofitsiant sizga pivo olib kelgandek g‘alati...”

U oldiga yaqinlari va tanishlarining telefon raqamlari yozilgan qog‘ozni qo‘yadi va navbatma-navbat ularni terib chiqadi. Har bir qo‘ng‘iroq oralig‘ida u o‘z hayot yo‘lini eslaydi. Bu yerda Gansning favqulodda sezgirligini – masalan, u telefon orqali ham hidni sezishi mumkinligini – alohida qayd etish lozim. Gans odamlarga nisbatan g‘oyat nozik sezgirlikka ega bo‘lgan shaxs edi – hatto uzoqdan turib ham ularning ichki holatini ilg‘ay olardi.

U ayrim tanishlarini iliq xotiralar bilan eslaydi, boshqalarini esa – achchiq va fojiaiy voqealar orqali. Aynan ana shu xotiralar ushbu asarning asosiy mazmunini tashkil

¹ <http://20v-euro-lit.niv.ru/20v-euro-lit/articles-germaniya/gabdulatzyanova-problema-zhanrovoj-identifikacii.htm>



qiladi. Gans Shnir Ikkinchi jahon urushini boshidan kechirgan, hayotda boylikni ham, qashshoqlikni ham totgan inson edi. U ikkiyuzlamachilik bilan tanilgan tanishlarini, jumladan, o‘z onasini eslaydi. Onasi urush yillarida ashaddiy natsist bo‘lgan, bugun esa “Irqlararo nizolarni yumshatish” tashkilotida rahbarlik qilmoqda – go‘yoki to‘liq tavba qilgan. Gans nazarida bu onasining yagona misoli emas – urushdan so‘ng ko‘pchilik sobiq natsistlar o‘zlariga demokrat niqobini taqib, jazodan deyarli qutulib qolganlar: biroz qo‘rquv, biroz yuzaki tavba – xolos.

Gans uchun yagona yaqin inson – opasi Genrietta bo‘lgan. Afsuski, u allaqachon vafot etgan. Shnirlar oilasida yana bir farzand – diniy seminariyada tahsil olayotgan ukasi Leo ham bor. Biroq bu sustkash va diniy qarashlarga berilgan yigitdan Gans hech qachon samimiy hamdardlik kutolmagan.

Muhtoj masxaraboz Hans Shnir do‘stlaridan yordam so‘raydi. Uning fikricha, yordam so‘rashda or-nomus yo‘q — axir, o‘zi ham imkon topganda boshqalarga ko‘mak beradi. U holda esa, ehtiyoj tug‘ilganda yordam kutishga haqli deb biladi. Pul nima o‘zi? Faqat bir shartlilik, tengsizlikni bildiruvchi ramziy belgigina: kimdadir bu qog‘oz bor, boshqada yo‘q. Shnir jamiyatdagi tenglik tarafdori. Uning tasavvurida barcha — mehnatkashlar ham, ishsiz kambag‘allar ham, bolalar-u qariyalar ham — baravar ne‘matlarga ega bo‘lishi kerak.

Do‘stidan o‘n marka olgach, u birinchi qilgan ishi — taksi chaqirish bo‘ladi. Shoshilinch, yuragi to‘lib, sevgilisi — Mariya tomon intiladi. Ammo do‘stining nigohi tanbehga to‘la: u bu pullarni zaruriy ehtiyojlar uchun bergan edi-ku, nega endi bu pul haddan tashqari hashamatlarga sarflanyapti? Bu — o‘ta muhim, g‘oyat ahamiyatli lahza.²

Endi mazkur parchaning grammatik tuzilishiga e‘tibor qaratamiz. Matn tahlilini aniq va izchil reja asosida amalga oshirish muhimdir. Quyida asarning grammatik xususiyatlarini bosqichma-bosqich ko‘rib chiqamiz.

² Глазами клоуна — публикации и статьи журнала STORY <https://story.ru/istorii-znamenitostej/istoriya-tsivilizatsii/glazami-klouna/>



Grammatik tahlil odatda ikki asosiy yo‘nalishda olib boriladi: morfologik va sintaktik. Tahlil jarayonini morfologik qatlamdan boshlash maqsadga muvofiq, chunki u so‘zlarning grammatik shakllarini aniqlashga yordam beradi. Morfologik tahlilda so‘z turkumlari, ularning morfem tarkibi, grammatik kategoriyalari va shakllanish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Endilikda, parchaning har bir so‘zini alohida ko‘rib chiqib, ularning morfologik tavsifiga e‘tibor qaratamiz.

“Wenn ich betrunken bin, führe ich bei meinen Auftritten Bewegungen, die nur durch Genauigkeit gerechtfertigt sind, ungenau aus und verfallte in den peinlichsten Fehler, der einem Clown unterfallen kann: Ich lache über meine eigenen Einfälle. Eine fürchterliche Erniedrigung....”,³

("Men mast bo‘lganimda sahnadagi chiqishlarimda faqat aniqlik bilangina oqlanishi mumkin bo‘lgan harakatlarni noaniq bajara boshlayman va masxaraboz uchun eng uyatli xatoga yo‘l qo‘yaman: o‘z hazillarimga kulib yuboraman. Bu esa dahshatli bir tahqirlovdir...")

„Wenn ich betrunken bin“:

- Wenn: bog‘lovchi so‘z (Konjunktion)., qo‘shma jumlaning boshlanishi, vaqtni bildiradi (shartli gap).
- ich: shaxsiy zamon keltiruvchi olmosh (Personalpronomen)., 1-shaxs, birlik.
- betrunken: sifat (Adjektiv)., holni bildiradi (ma‘lum bir holatda bo‘lish), bin“ fe‘li orqali holni bildiradi.
- bin: fe‘l, hozirgi zamon, 1-shaxs, birlikda.

„führe ich bei meinen Auftritten Bewegungen“:

- führe: fe‘l, hozirgi zamon, 1-shaxs, birlikda, kuchli fe‘l.
- ich: olmosh (Personalpronomen), 1-shaxs, birlik.

³ Böll Heinrich: Ansichten eines Clowns. Kiepenheuer & Witsch Verlag. Köln: 1963. S.15.



- bei: oldindan belgilangan joyni bildiruvchi predlog (Präposition)
- meinen: egalik olmoshi (Possessivpronomen), 1-shaxs, birlik, ko‘plikda ishlatilgan. „Auftritten“ so‘zi bilan bog‘lab, kimningligi ko‘rsatiladi.
- Auftritten: ot (Nomen), ko‘plikda, Dativ holida.
- Bewegungen: ot (Nomen), ko‘plikda, Akkusativ holida.⁴

„die nur durch Genauigkeit gerechtfertigt sind“:

- die: nisbiy olmosh (Relativpronomen), ko‘plikda. Funktsiya: „Bewegungen“ so‘zini tavsiflaydi.
- nur: hol (Adverb), moddiy yoki shartli holatni bildiruvchi predlog.
- durch: predlog, vosita yoki sababni bildiradi.
- Genauigkeit: ot (Nomen), birlamchi, Nominativ holida.
- gerechtfertigt: sifat, pasif shaklida ishlatilgan, nisbatan to‘g‘ri bo‘lishi.
- sind: fe‘l, hozirgi zamon, 3-shaxs, ko‘plikda.⁵

„ungenau aus“:

- ungenau: sifat, aniqlikni bildiradi (noaniqlik).
- aus: predlog, harakatni yoki holatni ko‘rsatadi (burilish yoki natija).

„und verfaller in den peinlichsten Fehler“:

- und: teng bog‘lovchi so‘z, qo‘shma gapni bog‘laydi.
- verfaller: fe‘l, hozirgi zamon, 1-shaxs, birlikda.
- in: predlog, joyni bildiradi.
- den: artikl, Akkusativ holida, maskulin. „Fehler“ so‘zi bilan birga objektini aniqlaydi.
- peinlichsten: orttirma darajadagi sifat, ta’riflash shakli (superlativ).
- Fehler: ot (Nomen), birlamchi, Akkusativ holida.⁶

„der einem Clown unterfallen kann“:

⁴ Саидов С., Зикиллаев Г. Немис тили грамматикаси. Т. 1973, В.101

⁵ Duden, Grammatik der deutschen Sprache, Duden Verlag, 2020

⁶ Саидов С., Зикиллаев Г. Немис тили грамматикаси. Т. 1973, В.101



- der: nisbiy olmosh (Relativpronomen), ko‘plikda. „Fehler“ni tavsiflaydi.
- einem: egalik olmoshi, 3-shaxs, birlik, Dativ holida. So‘z turi: egalik olmoshi (Possessivpronomen). „Clown“ so‘zi uchun yordam beradi.
- Clown: ot (Nomen), birlamchi, Dativ holida.
- unterfallen: fe‘l, mumkin bo‘lgan voqea, passiv shakl, harakatning yuz berishini bildiradi, bu yerda noqulay holatni ko‘rsatadi.
- kann: Modal fe‘l, mumkinlik yoki qobiliyatni bildiradi. Harakatning mumkinligini yoki ehtimolini bildiradi.

„Ich lache über meine eigenen Einfälle“:

- Ich: kishilik olmosh, 1-shaxs, birlik.
- lache: fe‘l, hozirgi zamon, 1-shaxs, birlikda. Funktsiya: predikat, harakatni bildiradi.
- über: predlog, sabab yoki holatni bildiradi. Funktsiya: harakatni yo‘naltiradi.
- meine: egalik olmoshi, 1-shaxs, birlik, Nominativ holida. Funktsiya: „Einfälle“ so‘zi bilan bog‘lanadi, kimga tegishli ekanligini bildiradi.
- eigenen: sifat, egallikni bildiradi (o‘ziga xos).
- Einfälle: ism, ko‘plikda, Akkusativ holida.

„Eine fürchterliche Erniedrigung“:

- Eine: artikl, birlamchi, Nominativ holida. „Erniedrigung“ so‘zi uchun aniqlik kiritadi.
- fürchterliche: sifat, juda yomon yoki noxush holatni bildiradi. „Erniedrigung“ni ta’riflaydi.
- Erniedrigung: ot (Nomen), birlamchi, Nominativ holida, ayni holatni bildiradi, pastga tushish yoki sharmanda bo‘lishni ko‘rsatadi.



„Ich bin kein Mönch. Ich hatte mir überlegt, ob ich aufs Land fahren und in meiner alten Schule einen der Patres um Rat fragen sollte, aber all diese Burschen halten den Menschen für ein polygames Wesen.“⁷

("Men rohib emasman. Qishloqqa borib, eski maktabimdagi rohiblardan biridan maslahat so‘rash haqida o‘ylagandim, lekin bu yigitlarning barchasi insonni ko‘pchilik bilan turmush quradigan mavjudot deb hisoblashadi.")

„Ich bin kein Mönch.“

Jumla turi: Oddiy (deklarativ) gap.

Subyekt: Ich (birinchi shaxs, birlik).

Predikat: bin (bo‘lmaq fe‘li, hozirgi zamon, birinchi shaxs, birlik).

Obyekt: kein Mönch (bular: kein - inkor artikl, Mönch - ot, bu yerda inkor qilinayotgan narsa).

„Ich bin kein Mönch“ degan jumlada “Men ruhoniy emasman” degan ma‘noni bildiradi. Bu yerda kein artikli „Mönch“ so‘zining inkor qilinishini ifodalaydi.

„Ich hatte mir überlegt, ob ich aufs Land fahren und in meiner alten Schule einen der Patres um Rat fragen sollte.“

Jumla turi: To‘ldiruvchi ergash gali qo‘shma gap (Objektsatz). Bu jumla ikki qismdan iborat: asosiy gap va qo‘shma gap.

Asosiy jumla: Ich hatte mir überlegt (Men o‘ylab ko‘rdim).

- Subyekt: Ich (birinchi shaxs, birlik).

- Predikat: hatte überlegt (o‘tmish zamon, yordamchi fe‘l hatte va asosiy fe‘l überlegt - bu yerda o‘ylash fe‘li o‘tmishda amalga oshganligini bildiradi).

Obyekt: mir (aks ettiruvchi zamir, o‘zini o‘ylashni bildiradi).

⁷Böll Heinrich: Ansichten eines Clowns. Kiepenheuer & Witsch Verlag. Köln: 1963. S.21.



Qo'shma gap („ob" bilan): ob ich aufs Land fahren und in meiner alten Schule einen der Patres um Rat fragen sollte (Agar men qishloqqa borishim kerakligini va eski maktabimda otalarimdan maslahat so'rashim kerakligini o'yladim).

- Subyekt: ich (ikkinchi marta zamir, bu yerda boshidan ko'rsatilgan subyektning takrorlanishi).

- Predikatlar:

fahren (yo'lga chiqish, harakat fe'li, infinitiv shaklida).

fragen (so'rash fe'li, infinitiv shaklida).

- Obyektlar:

aufs Land (bu yerda predlog auf va belgilangan joy, „qishloq“).

in meiner alten Schule (bu yerda predlog in va joy nomi – eski maktab).

einen der Patres (boshqa subyektga ega bo'lgan, unda „Patres“ otini ko'rsatish uchun aniqlovchi – bir necha „Patres“dan birini ko'rsatadi).

um Rat (so'rash fe'lining maqsadi - maslahat).

Shartli gap: sollte („bu amalga oshishi kerak edi", shartli yakun).

„aber all diese Burschen halten den Menschen für ein polygames Wesen."

Jumla turi: Oddiy (deklarativ) gap.

- Subyekt: all diese Burschen (bu yerda all - ko'plikni ko'rsatadi, diese - ko'rsatkich zamiri, Burschen - erkaklar, bu yerda „burschen" ko'plab o'g'il bolalarni anglatadi).

- Predikat: halten (fe'l, hozirgi zamon, „saqlash" yoki „hisoblash" fe'li).

- Obyekt: den Menschen („odamlar").

To'g'ri ifodalash: für ein polygames Wesen (bular predlog + maqsadni ko'rsatadigan ifoda bo'lib, „poligam" mavjudot sifatida).



„Nachmittags, als die Sittenpolizei kam, war ich froh, dass Marie weg war, obwohl die Tatsache, das sie weg war, für mich äusserst peinlich wurde.“⁸

("Kechki payt politsiya mashinasi kelganida, Mari ketib qolganidan xursand bo'ldim, garchi uning yo'qligi keyinchalik men uchun nihoyatda noqulay holatga aylangan bo'lsa ham.")

- Gap turi: Bu murakkab qo'shma gap (komplex zusammengesetzter Satz) bo'lib, unda bir nechta qo'shilgan qo'shimcha qo'shimcha gaplar mavjud.

Sintaktik birliklar tahlili:

Asosiy gap: „war ich froh“ – bu gapning asosiy qismini tashkil qiladi.

- war – fe'l (Predikat)
- ich – ega (Subjekt)
- froh – holat bildiruvchi sifat (Prädikativ)⁹

Qo'shimcha gaplar:

„Nachmittags, lassie Sittenpolizei kam,“ – bu vaqtni bildiruvchi qo'shimcha hol gap (temporaler Nebensatz).

- Nachmittags – vaqt holi (Adverbiale Bestimmung der Zeit)
- "als die Sittenpolizei kam" - Temporalsatz
- Als – Payt ergash gapni bog'lovchi bog'lama
- die Sittenpolizei – ega (Subjekt)
- kam – fe'l (Predikat)

„dass Marie weg war“ – Objektsatz

- Marie – ega (Subjekt)
- weg war – predikat (joyda yo'qligini bildiradi)

⁸ Böll Heinrich: Ansichten eines Clowns. Kiepenheuer & Witsch Verlag. Köln: 1963.S.121

⁹ Саидов С., Зикриллаев Г. Немис тили грамматикаси. Т. 1973, В.90



„obwohl die Tatsache, dass sie weg war, für mich äußerst peinlich wurde“ – bu qarama-qarshilik bildiruvchi qo‘shimcha gap (konzessiver Nebensatz).

- obwohl – bog‘lovchi (Konjunktion). Konzessivsatz
- die Tatsache – ega (Subjekt)
- dass sie weg war – bu „die Tatsache“ so‘zining ichidagi izohlovchi qo‘shimcha gap
 - sie – ega
 - weg war – predikat
- für mich – hol (Akkusativergänzung – kim uchun?)
- äußerst peinlich wurde – predikat (his-tuyg‘uni bildiradi)

Gap bo‘lagi	Turi
Nachmittags, als die Sittenpolizei kam	Payt ergash gapli qo‘sham gap (Temporalsatz)
war ich froh	Asosiy gap (Hauptsatz)
dass Marie weg war	To‘ldiruvchi gap (Objektsatz)
Obwohl die Tatsache, das sie weg war, für mich äusserst peinlich wurde	Qarama-qarshilikni bildiruvchi gap (Konzessivsatz)

Matnning sintaktik tahlilida quyidagi nuqtalarga e‘tibor qaratish mumkin:

Asosiy jumlarlar: Oddiy jumlalarda subyekt, predikat va obyektlar aniq va to‘liq.

Murakkab jumlarlar: Qo‘shma gaplar, subyektlar va predikatlar orasidagi bog‘lovchilar, jumlaning har bir qismini birlashtiradi va ular o‘rtasida aniq bog‘lanish mavjud.

Predloglar: Predloglar joyni („aufs Land“, „in meiner alten Schule“) va maqsadni (um Rat) aniqlaydi.

Endi matndan parcha olgan holatda ham morfologik ham sintaktik tahlil qilishga harakat qilaman.



„Die Schürfungen waren oberflächlich, die Schwellung harmlos, ich goß mir einen großen Kognak ein, trank das Glas halb leer und goß den Rest über mein wundes Knie, humpelte in die Küche zurück und stellte den Kognak in den Eisschrank.“

("Tirnalgan joylar yuzaki edi, shish esa xavfsiz ko'rinar edi. O'zinga katta bir konyak quydim, stakanning yarmini ichdim, qolganini esa yarador tizzamga quydim, cho'loqlab oshxonaga qaytdim va konyakni muzlatkichga qo'ydim.")

Bu murakkab gap bo'lib, unda bir nechta teng bog'langan ergashmagan (parataktik) gaplar mavjud.

Gaplar bo'linishi:

Die Schürfungen waren oberflächlich,

- Oddiy gap (predikat + subyekt + predikativ):
- Subyekt: die Schürfungen
- Predikat: waren
- Predikativ (xossa): oberflächlich

die Schwellung harmlos,

- Elliptik gap (fe'l tushirib qoldirilgan, ya'ni „war“), parallel qurilishda:
- Subyekt: die Schwellung
- Predikativ: harmlos

ich goß mir einen großen Kognak ein,

- Oddiy gap:
- Subyekt: ich
- Dativ oluvchi (qabul qiluvchi): mir
- Akkusativ ob'yekt: einen großen Kognak
- Fe'l (predikat): goß ... ein

trank das Glas halb leer

- Oddiy gap:



- Subyekt: ich (avvalgi gapdan kelib chiqadi)
- Ob'yekt: das Glas
- Predikat: trank ... halb leer (yarim bo'sh ichdim — to'liq fe'l + predikativ

tarzda ishlatilgan sifat)

und goß den Rest über mein wundes Knie

- Boshqa bir oddiy gap (bog'lovchi und bilan bog'langan):
- Subyekt: ich (avvalgi gapdan keladi)
- Ob'yekt: den Rest
- Fe'l: goß ... über
- Joy aniqlovchi: über mein wundes Knie

humpelte in die Küche zurück

- Oddiy gap:
- Subyekt: ich (haligacha saqlanadi)
- Predikat: humpelte zurück
- Joy aniqlovchi: in die Küche

und stellte den Kognak in den Eisschrank.

- Oddiy gap:
- Subyekt: ich
- Ob'yekt: den Kognak
- Joy aniqlovchi: in den Eisschrank
- Fe'l: stellte ...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Böll Heinrich: Ansichten eines Clowns. Kiepenheuer & Witsch Verlag. Köln: 1963.
2. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. М.: Наука, 1973. С. 367



3. Bertelsman. Grammatik der deutschen Sprache. München: Lexikon GmbH, 1999. S.702
4. Duden, Grammatik der deutschen Sprache, Duden Verlag, 2020
5. Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. Sankt-Peterburg: Lan, 1996. S. 544
6. Moskalskaja O. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. M.: Hochschule, 1971. S. 154-156
7. Саидов С., Зикриллаев Г. Немис тили грамматикаси. Т. 1973, В.216